



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO MODELLARI VA UNDAN TIJORAT BANKLARIDA FOYDALANISH ZARIURATI

Jumayeva G.J.-Qarshi davlat texnika universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasи professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro medellari va undan tijorat banklarining hisob hamda hisobot tizimida foydalanishning zarurati, o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikr mulohazalar bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, jozibadorlik, buxgalteriya, hisob, hisobot, standart, bank, model, investitsiya.

INTERNATIONAL ACCOUNTING MODELS AND THE NEED FOR THEIR USE IN COMMERCIAL BANKS

Jumayeva G.J.-Karshi state technical university

professor of the department of “Accounting and Auditing”

Annotation. This article presents a statement of opinions on international accounting models and the need for their use in the accounting and reporting systems of commercial banks, their specific features.

Keywords: investment, attractiveness, accounting, accounting, reporting, standard, bank, model, investment.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ МОДЕЛИ УЧЕТА И НЕОБХОДИМОСТЬ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Жумаева Г.Ж.-Каршинский государственный технический
университет, профессор кафедры «Учет и аудит»



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Аннотация

В статье изложены мнения о международных моделях учета и необходимости их использования в системах учета и отчетности коммерческих банков, их специфические особенности.

Ключевые слова: инвестиции, привлекательность, учет, бухгалтерский учет, отчетность, стандарт, банк, модель, инвестиции.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, investitsion jozibadorlik ko‘lамини kengaytirishda barcha sohalar singari hisob-kitob tizimini takomillashtirish, xususan, hisob va audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Barcha sohalarda bo‘lgani singari tijorat banklarida ham hisob va hisobot tizimi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etiladi. Ma’lumki, tijorat banklarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari haqida so‘z yuritilganda buxgalteriya hisobining xalqaro modellarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, tijorat banklari asosiy moliyaviy lokomativlar bo‘lganligi uchun ham hisob-kitob tizimining xalqaro standartlari, talablari milliy iqtisodiyotimizni xalqaro miqyosga olib chiqish, investitsiyaviy sherikchilikni yaxshilash, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va fond bozorlarining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 24 fevraldagи PQ-4611-son Qarorining qabul qilinishi tijorat banklarida hisob-kitob amaliyotida foydalanilayotgan xalqaro standartlarga to‘liq o‘tish jarayonlarini yanada tezlashtirish imkonini berdi. Xususan, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda - MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish” [1] davr talabi hisoblanadi. Ma’lumki, buxgalteriya hisobining xalqaro modellari



E CONF SERIES




International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘linadi va bu guruhlar bir-biridan farqlanuvchi jihatlari bilan ajralib turadi (1-rasm):



1-rasm. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellari va ularning xususiyatlari tavsifi.

Xususan, bugungi kunda “Britan-Amerika (Nederland)” modelining dunyo xo‘jaligidagi qamrovining so‘ngi yillarda oshib borayotganligining asosiy sabablaridan biri, uning sarmoyadorlar hamda moliyaviy donorlar uchun ochiq, shaffof, kafolatlangan hamda umume’tirof etilgan andozalar bo‘yicha umumlashgan axborotlar tizimini yaratish imkoniyatining mavjudligi bilan bir qatorda davlat boshqaruviga bo‘yso‘ndirilmaganlididir. Ushbu modelni o‘z amaliyotida qo‘llayotgan davlatlar tarkibiga ahamiyat qaratganimizda nafaqat rivojlangan davlatlar, balki, dunyo xaritasida mustaqil davlat sifatida tan olingan, yoki rivojlanish tendensiylarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro hisob talablarini qabul qilayotgan davlatlarni ham ko‘rish mumkin.

Xorijiy davlatlarda bu modelni demokratik model sifatida tan olinishi ham, undan foydalanuvchilar sonining oshishiga olib kelmoqda. Chunki, hisob va hisobot tizimida buxgalterlarning zamonaviy axborat texnologiyalarini qo‘llagan holatda erkin faoliyat olib borishi ta’milanadi. Uning asosiy maqsadi sarmoyadorlar,



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

pulidorlar, mulkdorlar, investor va kreditorlarni ishonchli va tushunarli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Asosan, fond birjalari orqali pul oqimlari aylangani uchun birja manfaatlariga muvofiqlashtirilgan, erkinlashtirilgan uslublarga asoslangan. Birinchi darajada turgan mazkur modelning afzalligi amalda bo'lgan qonunlarga emas, aksincha hisobchilarni erkin, ijodiy yondoshuvlar bilan faoliyat yuritishlariga imkoniyatning yaratilganligida. Ushbu afzalliklar hisobni olib borishdagi qoidalari, talablar yuqori turuvchi sohaga tegishli boshqaruv organlari tomonidan emas, balki, kasb maktablarining eng malakali mutaxassislari tomonidan belgilanadi. Ayniqsa bunday maktablar AQSHda talaygina bo'lib, ular doimiy ish olib boradi. Zero, bu maktablar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha subyektlar uchun "Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari" ni ishlab chiqqan va amaliyotga tadbig'i yuzasidan uzlusiz faoliyat ko'rsatadi. Tahlillarga ko'ra, "Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya" hamda AQSH "buxgalterlik assotsiatsiyasi" kabi jamoatchilik tashkilotlari hisob va hisobit tizimini taraqqiy ettirishda faol qatnashadi.

Xalqaro miqyosda "Britan-Amerika (Niderlandiya)" modeli e'tirof etiladi va afzalliklari tan olinadi. Ayni hisobni tashkil etishdagi mazkur model tartib-taomillar asosida moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari ishlab chiqilgan. Aynan, O'zbekiston Respublikasi ham ushbu model asosida hisob va hisobotlarni tashkil etish borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Biroq miilli davlatchiligidizda tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish hamda hisobotlarni tuzish va taqdil etish tartiblari va hisobotini yuritish tartiblari, uslubiy asoslari markaziy bank tomonidan ishlab chiqiladi va ushbu holat huquqiy aktlarda belgilab qo'yilgan [2]. Ushbu huquqiy asosga ko'ra, tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblarini belgilash maqsadida 2003 yil 3 sentyabrda "Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan. Unga ko'ra, har bir tijorat banki buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni tartibga solib turuvchi ichki huquqiy-me'yoriy aktlarni tayyorlashi va amaliyotga tadbiq etishlari belgilangan (12-band).

Biroq tahlillarimiz ko'rsatadiki, amaldagi "Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to'g'risidagi Nizom" hanuzgacha yangilanmagan. Bizningcha ushbu



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Nizomga MHXSlarini inobatga olgan holda qayta ishlab chiqish, yoxud qo'shimchalar, o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotnining xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son Qarori. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bankfaoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 41-modda. www.lex.uz.